



**IJTIMOIIY XAVF OSTIDAGI OILALAR BILAN ISHLASHDA IJTIMOIIY ISH
TEXNOLOGIYALARI**

Rajabboyeva Maftuna

*Samarqand Davlat Universitetining Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy
fanlar fakulteti 4-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: Abbosova Maftuna

Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedrası dotsenti

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbekistondagi xavf ostida qolgan oilalar, ularga ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy yordamlar ko'rsatish ularni jamiyatga integratsiya qilishga yordam berish har handay jamiyatning zaif nuqtasi bolgan ijtimoiy xavf ostida qolgan oilalar bilan ijtimoiy ish texnologiyalari bayon etiladi.*

Kalit so'zlar: *Oila, bolalar, adaptatsiya, ijtimoiy xavf, ijtimoiy texnologiya, ijtimoiylashuv, bolalar*

*“Boshni fido ayla ato boshiga,
Jismni qil sadqa ano qo'shiga.
Tun-kununga aylagali nur fosh,
Birisin oy angla, birisin quyosh.”*
Alisher Navoiy

Oila muhim ijtimoiy tizim hisoblanadi. Oilada uning a'zolari o'zaro mustahkam ishonch munosabatlari bilan bog'liq holda shakllanadi. Oila shunday muqaddas qo'rg'onki, bu maskanda inson tarbiya topadi. Shuningdek, inson o'z oila a'zolaridan muhabbat va qo'llab-quvvatlash kabi tuyg'ularni his qiladi. Biroq bu zamonaviy tez o'zgaruvchan dunyoda, oila katta qiyinchiliklar bilan ham to'qnash kelmoqda. Ayniqsa, ba'zi zamonaviy oilalarda bolalar moliyaviy yetishmovchiliklar oqibatida azob chekyaptilar, hammadan ko'proq, ota-onalarining doimo ish bilan bandliklari tufayli bolalarda, jismoniy yoki ruhiy zo'ravonlikni qanday yengishni bilmaydigan vaziyatlar paydo bo'lmoqda. Oilaviy muammolarni bartaraf etishni bilmasdan turib, oila a'zolarining ba'zilar narkotik yoki alkogol mahsulotlarini iste'mol qilishmoqdalar. Buning ayanchli oqibatlari esa oilalardagi zo'ravonlikni keltirib chiqarmoqda, Bu kabi nizolar uzoq davom etishi oilalarda ajralishlarga olib kelyapti. Ba'zi ota-onalar o'z ruhiy holatlaridan kelib chiqib, bola va yoshlarning hayot kechirish bosqichlarida ular bilan qanday murosa qila olmasdan, o'z farzandlarini to'liq moddiy-ma'naviy ta'minlay olmayaptilar. Ayniqsa, bunday holatlarni oilaviy inqirozlar vujudga kelgan paytlarda, oila azolarining jiddiy kasal

bo'lganlarida yoki ota-onalardan birining o'limi holatlarida yaqqol sezilmoqda. Namunali va yaxshi turmush kechiruvchi, ibratli oilalar atrofidagi boshqa oilalarga ham ijobiy ta'sir qiladi. Mahalla tizimidagi rahbarlar, oqsoqollar, xotin-qizlar qo'mitalari, yosh





oilalardagi ijtimoiy vaziyatga ijobiy ta’sir ko’rsata oladi. Bunday holatni chuqur tadqiqot bilan o’rgangan bir qator chet el olimlari va mutaxassisleri ham o’z ilmiy tadqiqotlarida alohida ko’rsatib o’tishadi.³⁸

O‘zbekistonimizning birinchi Konstitutsiyasida 63 - , 64 - , 65 - , 66 - moddalarida “Oila-jamiyatning asosiy bo‘g‘ini, onalik va bolalik davlat tomonidan himoyalanaadi, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli bolalar ota-onalariga g‘amxo‘rlik qilishlari shart”, deb ko‘rsatib o‘tilgan. Ota-onalar va farzandlar orasidagi huquqiy munosabat, ularning bir-biriga bo‘lgan mehr-oqibati, eng avvalo oilada namoyon bo‘ladi. Ba’zi hollarda, ayrim oilalarda maishiy buzuq, spirtli ichimliklar yoki giyohvandlik moddalarini suiiste‘mol qiluvchi, shuningdek, boshqa Salbiy sabablar bilan ota-onalik nomiga dog‘ tushirayotganlar ham yo‘q emas. Ota-onalar bolalarining jismonan va ruhan barkamol bo‘lib voyaga yetishlari uchun, ularga o‘zlaridagi bor sharoitdan foydalangan holda kelajaklari uchun ularga hech qanday tazyiq, ruhan ta’sir yetkazishlari mumkin emas. Aks holda, “voyaga yetmagan, muomalaga layoqatsiz bola ota-onaning unga bo‘lgan qo‘pol munosabatidan, uning huquqi poymol etilishidan aziyat chekib, bir umrga ruhan nosog‘lom bo‘lib qolishi mumkin”³⁹

Oilada jismoniy va psixologik jihatdan sog‘lom ma’naviy barkamol ,ijtimoiy hamda oilaviy hayotga tayyor shaxsni shakllantirib berishi lozim. Oilada bolalar eng avvalo, ota-onadan tarbiya olar ekan, ota-onalar bolalarining kelajagi uchun qayg‘urib, birinchi o’rinda o‘zlarining yurish-turishlarinidan tortib kiyinish, bolalar bilan muloqot madaniyatugacha katta e’tibor qaratishlari zarurdir. chunki xalqimizning shunday gapi borki “qush uyasida ko‘rganini qilar” ya’ni ota-onaning yurish turishi va muomala madaniyatidan farzandlarning kelajakda qanday inson bo‘lishlarini bilib olishlari mumkin. chunki farzand oyna kabir ota-ona nimani qilsa o‘sh narsalarni takrorlaydi.

Ijtimoiy xavf ostidagi oilalar- bu jamiyatimizda barqaror hayot faoliyatini kechira olmaydigan ko‘plab muammolar tufayli iqtisodiy, ijtimoiy, ma’naviy, psixologik sogliq va boshqa ko‘plab muammolar sababli zaiflashgan, shuningdek farzandlarining tarbiyasi uning soglom va barkamol rivijlanishi xavf ostida bo‘lgan oilalardir.

Ijtimoiy integratsiya — bu yangi kelganlar yoki ozchiliklarning mavjud jamiyatning ijtimoiy tuzilishiga qo‘shilish jarayoni.⁴⁰

³⁸ Berkes, F., Golding, J., & Folke, C. (Eds.). (2002). Navigating social-ecological systems: Building resilience for complexity and change. New York: Cambridge University Press; Duncan, S. F., & Goddard, H. W. (2005). Family

³⁹ Нечаева А.М. Правонарушения в сфере личных семейных отношений. -М.: 1991.-С. 45.

⁴⁰ Alba, Richard; Nee, Victor (1997). „Rethinking Assimilation Theory for a New Era of Immigration“. *International Migration Review*. 31, 4-jild, № 4. 826–874-bet. doi:10.1177/019791839703100403.





Ijtimoiy texnologiyalar-bu ijtimoiy jarayonlarga ta'sir o'tkazish uchun inson, intellektual va raqamli resurslardan foydalanish usuli.

Adaptatsiya-shaxsning o'z ichki xususiyatlarini o'zi yashiyotgan muhitning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zgartirishdi

Jamiyat (:lotincha *socium* — „umumiy“) – kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari majmui hisoblanadi. Jamiyatdagi hamma narsa (moddiy va ma'naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish va boshqalar) muayyan faoliyat jarayonida amalga oshadi.

Johiliyat davrida, ya'ni Islomgacha Arabiston yarim oroli aholisi o'rtasida ayolning hech qanday o'rni ham, qadr-qimmatini ham yo'q edi. Bu holat farzandning tug'ilishidan boshlanardi. Oilada o'g'il bola dunyoga kelsa, sevinishar, xursandchiliklar qilishar, qiz tug'lsa esa oilada motamsarolik hukm surib, tezda farzandni yo'qotish payiga tushishar edi. Ayolning eri oldidagi qadri erining moli chalik emasdi. Johiliyat zamonida arab erkaklari ayol bilan bir xonada o'tirmas, birga ovqatlanmasdilar. O'sha davrda arablar uch narsada: ot'da, ayolda, uyda xosiyat yo'q, deb ishonishardi.

O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksida oilaning yaxlit ta'rifi keltirilmagan. Chunki, «oila» tushunchasini qamrab olinishi va oila a'zolari ro'yxatini keltirilishi ular huquqlarini paymol etilishiga yoki oila a'zolari doirasini asossiz kengayishiga sabab bo'lishi mumkin. Biroq, «oila» va «oila a'zolari» tushunchasi O'zbekiston Respublikasi Oila Kodeksida keng qo'llanilgan. Mazkur Kodeksda ushbu atamalarning ta'rifi oila huquqi nazariyasidan kelib chiqib o'rnatilgan. Yuridik ma'noda oila nikoh, qarindoshlik, farzandlikka olish yoki boshqa shakllar orqali bolani tarbiyaga olish orqali bog'langan shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquq va majburiyatlar bilan bog'langan shaxslar doirasi sifatida ta'riflanadi.

Ushbu ta'rifda birgalikda yashash va umumiy xo'jalikni yuritish holatlari nazarda tutilmagan.

O'zbek tilining izohli lug'atida: «Oila – er-xotin, ularning bolachaqalari va eng yaqin tug'ishganlaridan iborat birga yashovchi kishilar majmui»- deb ta'riflangan.⁴¹

«Oila – bu tashkil topgan sotsial guruh bo'lib, uning a'zolari umumiy ro'zg'or, nikoh yoki qarindoshlik munosabatlari, shuningdek, jamiyatda Oila inson uchun muqaddas dargoh ekanligini, u insondagi tabiiy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy munosabatlari zaminida yuzaga keladi.

Xavf ostida qolgan oilarga quyidagilar kiradi:

1. To'liq bo'lmagan oilalar-ota-onasi ajrashgan yoki ota-onasi vafot etgan oilalar
2. Zo'ravonlik mavjud oilalar-ruhiy yokida jismoniy zo'ravonliklar kuzatiladigan oilalar.
3. Iqtisodiy taraflama yordamga muhtoj oilalar- daromadi yetarli emas moddiy yordamga muhtoj oilalar.
4. Ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar mavjud bo'lgan oilalar

⁴¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Ziyouz.com kutubxonasi



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



5. Psixologik nosog'lom muhit tasirida yashovchi oilar
6. Ko'p bolali ammo ota-ona nazoratisiz qolgan oilalar
7. Jinoyat sodir etgan va jazoni o'tayotgan oila a'zosi bor bo'gan oilarda-bolalarning ijtimoiylashuvi va integratsiyalashuvi xavf ostida bo'ladi
8. Ijtimoiy muammolar mavjud bolgan oila-jinoyatchilik, spirtli ichimliklar ,giyohvandlik axloqiy jihatdan og'ish va buzilish mavjud bo'lgan oilalar.

Xavf ostidagi oilar bilan ishlashda avvalo, ijtimoiy ish xodimlari profissonal malakaga ega bo'lishlari shart.Ijtimoiy ish xodimi xavf ostidagi oilar bilan ishlashda ota-onalar yoki bolar bilan bo'ladigan suhbatlarda har xil texnologiyalar qo'llaydilar va ular bilan suhbatlar olib boradilar. Bunda Ijtimoiy ish xodimlari eng yaxshi terapiya usullaridan biri "tuxum" terapiyasidan foydalanadilar,chunki tuxum terapiyasida eng avvalo, ona bilan bo'ladigan suhbatda uning ichini ochishga harakat qilishadi,va unig qanday muammolar bilan aziyat chekayotganligini aniqlashadi,va undan keyin biron xulosaga kelishib muammoga yechim topishga urinishadilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Yusupov R.K. Ijtimoiy ishga kirish. O'quv qo'llanma. – Samarqand : SamDU nashriyoti, 2020. – 260 bet.
- 2.Оила маънавияти/ О. Сафаров. Махмудов; — Тошкент: Маънавият, 2009 - 248 б.
- 3.G.G.Tagieva, H.T.Husanova. Oila va gender sotsiologiyasi. Darslik. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021. – 304 bet.
- 4.ГУЛШОДА ЎРАЗАЛИЕВА ГЕНДЕР ВА АЁЛЛАР ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТИ Тошкент – 2009